

O'zbekiston Prezidenti Saudiya Arabistonining delegatsiyasini qabul qildi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 25 yanvar kuni Saudiya Arabistoni Podshohligi investitsiyalar vaziri Holid al-Falih boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Uchrashuvda O'zbekiston-Saudiya ko'p qirrali munosabatlarini yanada mustahkamlashning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari keyingi yillarda ikki tomonlama hamkorlik jadal rivojlanib borayotganini mamnuniyat bilan qayd etdi.

Xususan, pandemiyaga qaramay, ikki mamlakat davlat organlari va ishbiarmonlik doiralari darajasida faol muloqot olib borilmoqda. Investitsiyalar vaziri delegatsiyasi tarkibida Saudiya Arabistonining 30 ga yaqin yetakchi kompaniyalari rahbarlari O'zbekistonga tashrif buyurgani ham shundan dalolat beradi.

Investitsiyalar vaziri Holid al-Falih O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirdi, Saudiya Arabistoni Podshohi Salmon Ol Saud va valiahd Muhammad Ol Saudning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Vazir Saudiya kompaniyalarining investitsiya loyihalari qo'llab-quvvatlanayotgani va ularning mamlakatimizda samarali faoliyat yuritishi uchun yaratilgan qulay sharoitlar uchun samimiy minnatdorlik bildirdi.

Delegatsiya tashrifi arafasida Buxoro shahrida qo'shma biznes-forum muvaffaqiyatli o'tkazilib, Ishbiarmonlik kengashini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi, yirik kooperatsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha kelishuvlar imzolandi.

Kecha Sirdaryo viloyatida "ACWA Power" korporatsiyasi ishtirokida quvvati 1200 megavatt bo'lgan

zamonaviy issiqlik elektr stansiyasini qurish loyahasiga start berildi. Bundan tashqari, ushbu kompaniya tomonidan Buxoro va Navoiy viloyatlarida umumiy qiymati 1000 megavattli shamol elektr stansiyalari barpo etiladi.

Umuman, mamlakatimizda Saudiya investitsiyalari ishtirokidagi qo'shma korxonalar va loyihalar soni keyingi yillarda bir necha barobarga ko'paydi.

Muzokaralar chog'ida amaliy hamkorlikning aniq loyihalari muhokama qilindi.

Energetika, neft-gaz, gaz-kimyo va kimyo, sanoat, qishloq xo'jaligi tarmoqlarida, sog'liqni saqlash, farmatsevtika sohalari va boshqa yo'nalishlarda, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik prinsiplarini joriy qilish asosida yangi loyihalarni tayyorlash va amalga oshirish yuzasidan kelishuvlarga erishildi.

Qo'shma dastur va loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash vositalarini rivojlantirish, jumladan, O'zbekistonda investitsiya kompaniyalari va mikromoliyaviy tashkilotlarni tuzish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Ushbu tashabbuslarni o'rganish va ilgari surish maqsadida "yo'l xaritasi"ni qabul qilib, amalga oshirish, hukumatlararo komissiya faoliyatini qayta tiklash, ustuvor loyihalar bo'yicha ishchi guruhlarini shakllantirishga kelishib olindi.





Manba